

ADABIYOT DARSLARIDA PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISHNING  
AHAMIYATI

Djaksilikova Aygerim Bakitjan qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti Qozoq  
tili va adabiyoti ta'lim yo'naliishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot darslarida pedagogic metodlardan foydalanishning ahamiyati yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan. Adabiyot darslarida mavzuga muvofiq keluvchi pedagogic metodlarning amaliyotini ta'minlash va ularni targ'ib qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi yuzasidan nazariy qarashlar ham mavjud. Maqolada adabiyot sohasida qo'llaniladigan metodlar va interfaol usullarning dolzarbliligi yuzasidan qarashlar o'z ifodasini topgan. Maqolada manlitiv fikrlashning ahmiyatililik darajasi yuzasidan ko'plab metodlar tavsiya etilgan. Shuningdek maqolada adabiy asarlarning o'quvchi-yoshlar ongiga ta'siri, fikrlash qobiliyatiga ijobiyligi ta'sir o'tkazishi yuzasidan qarashlar o'z ifodasini topgan ekanligi bilan farqli jihatlarni yuzaga keltiradi.

**Kalit so'zlar:** Badiiy tasvir, mantiq ilmi, fikrlash, adabiy ta'lim, suhbat metodi, ta'limiyl Samaradorlik.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik innovatsiyalarga tayangan holatda dars jarayonini tashkil etish va dars samaradorligini oshirish masalasi dolzarblilik darajasini yo'qotmay kelmoqda. Haqiqatdan ham, adabiyot darslarida yoshi va o'zlashtirish darajasiga ko'ra adabiy metodlardan qo'llash va ulardan foydalanish ko'nikmasi o'z dolzarblilik masalasini yo'qotmay kelmoqda. Shunga ko'ra ta'lim shakllarining muktab, o'rta ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keying ta'lim kabi shakllarida o'quvchi-yoshlarni intellektual salohiyat egasi qilib tarbiyalash masalasining dolzarb ekanini unutmaslik lozim.

"Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o'rganishda o'zidan oldingi qarashlar, tushunchalar, farazlar, chiqarilgan xulosalar hamda qabul qilingan qarorlaming qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliгини belgilab oladi. Mulohaza yuritib, narsa-hodisalar o'rtasidagi munosabatlar, xossalari, xususiyatlar, ulami bir-biri bilan bog'lab yoki ajratib turuvchi jihatlar hamda ulaming faoliyati mexanizmlarini anglab yetadi. Bu haqiqatni hazrati Navoiy bundan necha yuz yillar ilgari: «Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod», -deya ifodalagan.[1] Haqiqatdan ham, adabiyot va adabiy asarlar opquvchilarga mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarining shakllanishida katta vosita bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur va fikrlash kabi tushunchalarni rivojlantirishda FSMU, Sinvey, boomerang, uch qadam kabi metodlarning ahmiyati katta. Harqanday metod va usullarni qo'llashdan avval ushbu metodning qo'llanilish darajasi va qo'llangandan so'ngi natijalari ham inobatga olinishi lozim. Bu esa dars samaradorligini yuzaga keltiruvchi muhim manba bo'lib xizmat

qiladi. Yosh xususiyati va mavzu ko'lamiga xos bo'lgan metodlarni qo'llash o'ziga xos yaxlitilik asosida amalga oshiriladi.

■L. Vigotskiy odamdag'i fikrlash mexanizmi, darajalari, kishining intellektual rivojlanishi uchun barchasini tushuntirib beradi. Fikrlashning mantiqqa tayanishi esa 14 yoshga yetganda, u o'z tafakkuriga egalik qilib, uni himhquru bilganda yuzaga keladi. Vigotskiyning ta'libiricha, manlitiv fikrlash - ongli ravishda, o'z-o'zini nazorat qilgan holda ilmly-ma'lifiy asoslarga tayanib fikrlash demak. Uningcha, fikrlashda niiinlicning yo'qligi fikrlash jarayonida mustaqillikning, erkinllkning, onglilikning yo'qligi demakdir.[2] Rus olimi Vigotskyning nazariy qarashlarida jon bor. Bunga sabab fikrlash mexanizmining asosiga ko'ra FSMU metodini har qanday yoshdagi o'quvchi uchun tavsiya qilish yoki qo'llash mumkin emas.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish va ularning yechimi munozara orqali adabiy jarayon vakillari bilan yuzaga chiqish holatlari ham paydo bo'ladi. Shuning uchun ham metod va usullarning qo'llanilish tarixi va uзвиyligiga ko'ra harakarli usullar va aqliy salohiyat bilan bo'liq usullar kabi guruhlarga bo'lib olamiz. Harakat asosiga quriladigan metodlarning asosi o'quvchilarni dars va mavzuga qiziqtirish, mavzuning tushunarlik darajasini oshirishga qaratilgan ekanligi bilan ham aloqadordir. Oliy ta'limda aksariyat hollarda muammoli ta'lif texnologiyalaridan foydalanish masalaalari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. «Fikrlash jarayoni, shunday deb yozadi L. Vigotskiy, - bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa suhbatlarni bola «yutib», o'zicha «hazm qila» boshlaganidan so'ng shakllanadi».[3] Adabiyot darslarida yuzaga keladigan muloqot har qanday yoshdagi o'quvchilar uchun foydali bo'lib, muloqot asnosida og'zaki nutq ham o'sib, rivojlana boshlaydi. Ushbu maqsadga ko'ra og'zaki nutqni rivojlantirishga oid bo'lgan metodlarning zamonaviy axborot vositalari bilan aloqador tarzda yuzaga kelishi ham opziga xoslikni yuzaga keltiradi. Ushbu maqsadda elektron topshiriqlar, kompyuter bilan ishlanadigan vazifalar umumiyligi yuzasidan bu turdag'i pedagogik innovatsiyalarning ahamiyati katta ekanligi anglashiladi.

■Bolaning qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nmanagan davrida undagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib uning shaxsiyatida ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr egasini tarbiyalashga erishish maktab ta'lif-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. «Agar bolalami mustaqil fikrlashga o'rgatmdqchi bo'lsak, eng awalo, ulami ertaklar to'qishga, sarguzashtlar yaratishga undash kerak. Fikrning originalliligi, yangi ekani, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish - fikming dushmani», - degan edi italiyalik ertakchi adib J. Rodari.[4] Shuningdek, adabiyot darslarida doska bilan ishslash texnologiyalarini ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab ushbu ta'lif texnologiyalarining ham ommabop bo'lishi ham harakatli usullar bilan aloqadorlikni o'zida saqlagan holatda yuzaga kelishidir. Dars jarayonida quyidagilarga atroflicha e'tibor qaratish lozim:

- qo'llanilayotgan metodning samaradorlik darajasi;
- metodning novatsion imkoniyatlarini belgilash;

- dars jarayonida muammoli ta'lif texnologiyalaridan foydalanish;
- fanlararo integratsiyalashgan ta'lif shaklini yuzaga keltirish;
- ta'lif jarayonida zamonaviy pedagogic vositalardan foydalanish.

Metodlarning mavzuga moslashtirilishida novatsion dasturlarning an'anaviy va noan'anaviylik asosida yuzag kelishi bilan bog'liqdir. Metodik amaliyotning yuzaga kelish jarayonida integratsiyon yondashuvlardan ham foydalanishning samaradorligi kattadir. Mavzuga oid bo'lgan tushuncha va harakatli usullarning novatsion birliklar asosida amaliyotga tatbiq qilinishi ham yaxshi samaradorlikni yuzaga keltirishga sabab bo'ladi. **Innovatsiya** so'zi lotinchadan olingan bo'lib, kiritilgan yangilik ma'nolarini anglaatadi. **Novatsiya** termini esa tahrirlash, o'zgartirish kiritish kabi ma'nolarda yuzaga keladi.

Mamlakatimizda joriy etilgan ta'lif tizimiga asoslangan holatda oliy ta'limda tehsil olayotgan talabaalarning amaliyot o'tashi va malakaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi 4+2 tizimiga asoslangan holatda yuzaga keltirilmoqda. Ta'lif tizimini isloh qilishning zamonaviy pedagogik kommunikatsiyalar asosida yuzaga kelishi ham dars sifatiga bevosita ta'sir qilmay qolmaydi. Talaba bir-ikki metoddan amalda foydalanish haqida tasavvurga ega bo'lsa, qolgan metodlardan ham o'mi bilan shunday foydalanaverish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lif amaliyotida hamisha yetakchi o'rindan birini egallab kelgan suhbat m etodi o'quvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda ham qo'l keladigan metodlardandir. Metodika ilmida bu metodga bag'ishlangan anchagina ishlar mavjud. Jumladan, A. Tojiyevning «Adabiyot darslarida suhbat» qo'llanmasida adabiy ta'lif samaradorligini ta'minlashda suhbat metodining o'mi va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.<sup>[5]</sup> Shunga ko'ra adabiyot darslarida suhbat metodidan unumli tarzda foydalanish, qolaversa, mavzuga doir bo'lgan boshqa metodlarga integratsiya qilish ham yaxshi samaradorlikni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lif ishini tashkil etishda adabiyot faniga mos keluvchi metodlardan unumli foydalanish mavzuning umumiylarida ochib berilishiga katta yordam beradi. Shuningdek, dars davomida integratsiyalashtirilgan metodlardan foydalanish, mavjud metodlarni esa vaziyat va mavzuga uyg'un tarzda novatsiyalashtirish masalalari katta ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 20 jildlik. 8-jild. Xamsa: Farhodva Shirin. -T.: «Fan», 1991. 122-bet.
2. Выготский Ю. С. Воображение и творчество в детском возрасте. — Москва: «Просвещение», 1991; Выготский Ю. С. Педагогическая психология. - Москва: «Педагогика», 1991; Выготский Ю. С. Психология искусства. - Москва: «Педагогика», 1987
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: «Просвещение», 1991; 90-bet.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-7 ISSUE-5 (30- May)**

---

4. Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с итальян. Ю. А. Добровольский. - Москва: «Прогресс», 1978. \$. 190
5. Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. - T.: «O'qituvchi», 1997.